

Guliston davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi,
Psixologiya fanlari doktori, dosent,
Sharapova Saboxat Djabbarovna
taqrizi ostida

Norbo‘tayeva Ulbo‘sin Hasan qizi
GulDU talabasi
+998948701771
norbotayevaulbosin@gmail.com
Ravshanov Sobir Abdumalik o‘g‘li
GulDU doktoranti
+998881743031
sobirravshanov3@gmail.com.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA TARBIYANING O‘RNI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya jarayonining maktabgacha yoshdagi bolalar hayotidagi o‘rni, ahamiyati, tarbiya shakllari metodlari, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiya jarayonini rivojlantirish usullari haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so’zlar: Maktabgacha tarbiya, ong, xulq, oila, farzand tarbiyasi, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, komil inson tarbiyasi, tarbiyaning uzluksizligi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение образовательного процесса в жизни дошкольников, методы образовательных форм, а также методы развития образовательного процесса у дошкольников.

Ключевые слова: Дошкольное образование, сознание, поведение, семья, воспитание ребенка, воспитательный процесс, цель воспитания, воспитание совершенной личности, непрерывность образования.

THE ROLE AND ITS SIGNIFICANCE OF EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: This article discusses the role and importance of the educational process in the life of preschool children, methods of educational forms, as well as methods of developing the educational process in preschool children.

Key words: Pre-school education, mind, behavior, family, child education, education process, goal of education, education of a perfect person, continuity of education.

Tarbiya — shaxsda jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo‘lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minalash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig’indisidir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minalaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi. Shu o‘rinda buyuk mutafakkur olim Abdulla Avloniyning fikrlari hozir ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rishimiz munkun: “Tarbiya biz uchun yo‘ hayot, yo‘ mamot, yo‘ najot, yo‘ halokat, yo‘ saodat, yo‘ falokat masalasidir”

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning “Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in xisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz xayotidagi o‘rni va ahamiyatini xech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.” degan fikrlari orqali bugungi rivojlangan, globallashuv davrida maktabgacha ta’lim davrida tarbiyaning naqadar ahamiyali, o‘rinli ekanligini anglashimiz munkun. [1]

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish hamda uni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzlusiz ta’lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir.

Tarbiya - o‘qituvchi hamda o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar) o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam hamda tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib, shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori bilan bir qatorda dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo‘naltirilgan qizg‘in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg‘ulari rivojlanadi, o‘zida ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan, kishilar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo‘ladi.[3]

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg‘ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo‘lgan jarayonlar yig‘indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog‘lanishlarda, munosabatlarda ko‘ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o‘quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta’lim va tarbiya samarali ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ortiqcha toliqtilish bo‘lmasligi yo‘llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlarini va imkoniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim malaka va ko‘nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to‘g‘risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo‘ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to‘laqonli aqliy rivojlanish ro‘y beradi, shuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi — bolaga muayyan maqsadni ko‘zlab tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlarini masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Ma’lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning

atrofidagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Bog‘cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to‘g‘ri uyuştirish ularning vaqtidan to‘g‘ri hamda unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o‘z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo‘yicha Abu Ali Ibn Sino maxsusus “Tadbir al-manozil” nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bola tarbiyasidagi vazifalarini yoritgan. Asarda ota-onaning vazifasi, burchiga shu bilan birgalikda oila munosabatlariiga to‘xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb hamda hunarga o‘rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila hamda oilaviy masalalarga keng o‘rin berilgan. Ota oilada o‘z farzandlariga har tomonlama: yurish-turishda, nutq odobida, so‘z madaniyatida, o‘zaro muomala jarayonida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to‘g‘rilik va haqqoniylilik, samimiylikká namuna bo‘lmog‘i kerak. Oilada farzand tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasining ma’naviy olamida e’tiqodni shakllantirish deb hisoblagan edi olim.[4]

Tarbiya -“Pedagogika” ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdirmakdur. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, ”poklik” degan davoni ustidan berub, kata qilmog‘i lozimdir. Zeroki, ”Hassinu axloqiko‘m amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz”. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadir”.

Axloqimizning binosining go‘zal va chiroqli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur, ba’zilar “tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas”, - demishlar.

Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta, ta’siri bo‘ladur. Oramizda masal borki, ”Sut ila kirgan , jon ila chiqar”, mana bu so‘z to‘g‘ridur. Hukamolardan biri: - “Har bir millatning saodati, davlatning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”, - demishlar. Shariati islomiyada o‘z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o‘z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur. Payg‘ambarimiz: ”Bolalaringizni yeti yoshdan namozga o‘rgating. Agar o‘n yoshida o‘qimasa uringiz”, - demishlar.[5]

Oila tarbiyasida to‘g‘ri yoki egri o‘sishga bog‘bon mehnati va mahoratiga bog‘liq. Egri o‘sayotgan niholning qaddini rostlab qo‘ymasa, u noto‘g‘ri o‘sadi. Yangi tug‘ilgan go‘dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o‘rtasida qandaydir o‘xshashlik mavjud. Bundan ko‘rinib turibdiki, axloq-odobning normalari - kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, xalollik, rostgo‘ylik va mehnatsevarlik kabilar oiladan boshlanadi. Bu zikr qilingan pedagogik falsafiy tushunchalar oila rahbarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqidir.[6]

Xulosa qilib aytganda, tarbiya avvalo oiladan boshlanadi. Har kim oilasidan olgan, oila muhitida ko‘rgan tarbiyasini va xatti-harakatlarini jamiyatda, o‘quv muassasalarida, shaxslararo munosabatlarda ko‘zgudek namoyon qiladi. Bundan tashqari tarbiyani biz atrofimizdagи

insonlardan ham olishimiz mumkin.Xalqimizda shunday bir gap bor: "Odobni odobsizdan o'rgan". Bu gap bejiz aytilmagan.Shuning bilan birga tarbiya uzlusiz jarayon hamdir. Tarbiyada tanaffuslar, ta'tillar bo'lmaydi. Insonning butun hayoti davomida tarbiya rivojlanib,kamol topib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoev. YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI – Toshkent - "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet. [1 - 224 bet]
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011, -420 b.[2,3 – 124-126 bet]
3. Oila pedagogikasi fanidan tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua. – Guliston 2022. – 219 b.[4-134-137]
4. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 160 b. .[6-91-92]